

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TASVIRIY FAOLIYATINI YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabaxrom qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura
bo'limi Tasviriy san'at yo'nalishi 2–bosqich magistranti
abduqahhorovamuslima11@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatini yosh va psixologik xususiyatlari asosida rivojlantirishning pedagogik hamda metodik jihatlari tahlil qilingan. Unda 1–4-sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatidagi bosqichma-bosqich o'zgarishlar, rangni idrok etish, shaklni tasvirlash, kompozitsiya tuzish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida individual yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning tasavvuri va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar hamda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tasviriy san'at, tasviriy faoliyat, yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish, badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, kompozitsiya, rang tasviri, individual yondashuv, metodika.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijodiy tafakkuri, estetik dunyoqarashi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida tasviriy san'at fanining o'rni beqiyos bo'lib, u o'quvchilarning atrof-muhitni kuzatishi, idrok etishi, obrazli fikrlashi va voqelikni badiiy ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyati ularning yosh va psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir yosh bosqichida bolaning rangni qabul qilishi, shakllarni farqlashi, fazoviy tasavvuri hamda tasvir yaratish imkoniyatlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, 1-sinf o'quvchilarida predmetlarning tashqi ko'rinishi va ranglarini ifodalash jarayoni hali sodda shaklda kechsa, 2–3-sinflarga kelib ularning tasviriy faoliyatida shakl, chiziq, rang uyg'unligi va kompozitsion tuzilishga e'tibor kuchaya boshlaydi. Shu sababli tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida o'quvchilar nafaqat rasm chizish texnikalarini egallaydilar, balki borliqni kuzatish, tahlil qilish, estetik baholash va o'z fikrlarini obrazlar orqali ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Bu jarayonda

o'qituvchining to'g'ri metodik yondashuvi, topshiriqlarni o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga mos ravishda tanlashi hamda ijodiy muhit yaratishi muhim omil hisoblanadi.

1-sinf o'quvchilari ko'pincha akvarel bo'yoqlarini guash sifatida ishlatadilar, varaqning sirtiga qalin qatlam bilan qo'yadilar. Ular faqat bo'yalgan narsalarni bo'yashadi va fonni oq rangda qoldirishadi, qolgan katta bo'shliq bo'yoqsiz qoladi. Bolalar predmetlarning shakli va rangini qarama-qarshi qo'ymaydilar, ko'p geometrik shakl va jismlarni to'g'ri nomlay olmaydilar va chiza olmaydilar, hajmlarini tasvirlay olmaydilar va hajmli jismlarni yassi shakllar bilan chalkashtirib yuboradilar. Bu yoshda ularga geometrik jismlarni chizishni o'rgatish juda erta. Ushbu vaziflarni 3-sinfdan keyin qo'yish mumkin. Shu bilan birga hajmli ob'ektlardan sabzavotlarni, mevalarni chizishlari mumkin.

2-sinf o'quvchilarining rasmlarida ba'zi o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'quvchilar o'zlarining ishlarida shakl va chiziqlarni yaxshiroq his qila boshlaydilar, rang va qog'oz varag'idagi narsalarning joylashishiga ko'proq e'tibor bera boshlaydilar. Astasekin, 2-sinf o'quvchilari o'quv yilining oxirida tasviriy faoliyatning keyingi rivojlanish bosqichiga o'tishadi, uni "haqqoniy tasvirlash" bosqichi deb ham atash mumkin. Tasvirlash texnikasida o'quvchi oddiy "simli" chiziqdan, murakkab chiziqqa, lokal rang bilan oddiy bo'yashdan turli xil bo'yash usullariga o'tadi. 2 - sinf o'quvchilari ranglar yordamida yorqin quvonchli, qayg'uli yoki havotir holatini ifodalashga qodir bo'lishadi.

3-sinfdan boshlab bolalar o'zlarining ishlariga ko'proq tanqidiy munosabatda bo'lishni boshlaydilar: ko'proq "Unday emas", "O'xshamadi", "Men bilmayman" va hokazo so'zlarni eshitish mumkin. Tajribamizdan kelib chiqib shuni ta'kidlaymizki, 3-sinf o'quvchilari tayyor tasviriy faoliyatga tayyor bo'lishlari kerak: rang xususiyatlarini tushunish va tasviriy faoliyatda qo'llash bilan bog'liq ishlarni bajarishlari kerak, bu ularga yanada dadil va ishonch bilan ishlashga imkon beradi. Uchinchi sinfda bolalarda idrok etish psixologik xususiyatining eng muhimi shakllanadi - bu atrofimizdagi dunyoni bilish, rassomning g'oyasini anglash va shundan hayotning o'zini chuqurroq bilishga harakatlari namoyon bo'ladi. Buni biz 3-sinfdan "Koinotga sayohat" mavzusida kompozitsiya ishlash orqal individual yondashishni amalga oshirishimiz mumkin.

Jihozlanishi: rasm daftari, oddiy qora qalam va akvarel bo'yoqlari, mo'yqalam, o'chirg'ich, kosmik manzara reproduksiylari.

Darsning mazmuni: O'quvchilarga koinot olami, kosmonavt haqida ma'lumot berish hamda uni idrok etishda koinot ko'rinisi undagi ranglar haqida suhbat o'tkaziladi, "Koinotga sayohat mavzusida kompozitsiya ishlashda kosmik kemalar, planetalar, kosmonavtlarni tasavvur etishi haqida ma'lumot beriladi. Sinf doskasida o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan koinot olamiga oid manzara na'munalarini

namoyish etib, o'quvchilarning koinot olamiga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqib, quyidagi tarzdagi variantlarni tavsiya etadi:

1. Birinchi guruh o'quvchilari uchun: "Koinot olamiga sayyohat qilish uchun sizga yoqadigan kosmik kemani tanlang va rasm daftarga rangli qalamlarda tasvirlang"
 2. Ikkinchi guruh o'quvchilari uchun: "Koinot olamidagi Saturn, Yupiter, Mars, Venera sayyoralarni rangli qalamlar va flomasterlar yordamida tasvirlang"
 3. Uchinchi guruh o'quvchilari uchun: "Turli xil koinot olamida yashovchi robot va mavjudotlarni tasvirlang: Vall-I, BYorn-I, "Xazinalar planetasi", "Qizil planeta Siri", "Kosmik qaroqchi Xarlok" va boshqa multfilmlar personajlarini guash yoki akvarelda tasvirlang"
- 4-sinf o'quvchilari bo'yoq va mo'yqalamlar, grafik tasvirlash ashyolari bilan ishlashni faol ravishda o'zlashtiradilar, chiziq, nuqtalardan unumli foydalanishni o'rganadilar, ya'ni tasviriy san'at darslarida o'zlarini yanada ishonchli his qilishlariga imkon beradigan mahorat asoslari kurtaklarini o'zlarida ishlab chiqadilar.

Bu yoshdagi bolalar ishtiyoq bilan rasmlar chizishadi va yosh rassomlarga har qanday o'qituvchining aralashuvi mutlaqo keraksiz bo'lib ko'rinadi. Albatta, bu noto'g'ri. Bolalarning rasmlariga o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashuvi, darsda "Muvaffaqiyat qozonish" xolatini yaratish metodlari nafaqat uni yanada ishlashga undaydi, balki unga yangi cho'qqilarni zabt etishga yordam beradi.

O'smirlik davridagi o'quvchilarga maxsus psixologik xususiyatlar xos bo'lib, ular tasvirlash faoliyatlarida hisobga olinishi kerak bo'ladi.

O'rta maktab yoshi davri (o'spirin) 13 yoshdan 15 yoshgacha: 5-6-sinf o'quvchilari o'zlarining "bajargan ishlari va o'zlarining qobiliyatlariga" tanqidiy munosabatda bo'lishni boshlaydilar. Bu jarayon ularning o'sib-ulg'ayishini anglatadi, talabchanlikning kuchayishi, mukammallikka va o'zini namoyish etishga intilish kabi fazilatlar namoyon bo'ladi. Agarda boshlang'ich sinflarda bolalar topshiriqlarni bajonidil bajarib, qiziqish va g'ayrat bilan chizishsalar, biron bir kichik natijalar bilan mamnun bo'lishsalar, o'rta sinflarda esa boshqacha manzara kuzatiladi. 5-6 sinf o'quvchilari darhol ishga kirishmaydilar, ular topshiriqni bajarib bo'lib, agar u "yaxshi" chiqmasa, natijadan shunchalik norozi bo'lishi mumkinki, u rasmlarini yirtib tashlashi ham mumkin va o'zini "qobiliyatsiz" deb bilishi va umuman rasm chizishni to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunday holatlarni o'qituvchilar ko'p kuzatgan. Bunday hollarda nima qilish kerak?

Birinchi navbatda, o'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarni tasviriy faoliyatga jalb qilish va har bir bolaning xarakteridan kelib chiqib individual yondashish zarurdir. Bunday vazifani bajarishda o'qituvchining mahorati katta rol o'ynaydi. Biroq, bu vazifani 5-6sinflarda amalga oshirish oson bo'lmaydi, ayniqsa bolalar boshlang'ich sinfda etarli tasvirlash qobiliyatlari bo'yicha tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsa.

Tasviriy san'at bo'yicha 5-6-sinflardagi vazifalar juda murakkab va ba'zi o'quvchilar ularni haqiqatan ham bajara olmaydilar. Bizningcha bunday vaziyatlarda har bir bolaga individual holatda alohida yondashish kerak. O'quvchilarning tasviriy faoliyat bo'yicha tayyorgarligini hisobga olgan holda vazifani tabaqalashtirish ham mumkin. Narsaning o'ziga qarab rasm ishlaganda, masalan, bitta guruh o'quvchilar choynakni ishlasalar, boshqalari - piyolalar, lagan va h.k. Dekorativ kompozitsiya darslarida rasm ishlash bir muncha qiyinroq bo'ladi. Bu o'qituvchidan ijodkorlik, oldindan tayyorgarlik ko'rilgan holatda o'z ichiga olgan katta individuallashtirishni talab qiladi. Masalan, miniatyura uchun quti qopqog'i uchun naqsh tuzishda, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni oddiy geometrik elementlarning naqshini - kvadrat yoki to'rtburchak shaklidagi qog'ozdan kesilgan elementlarning naqshini tuzishni taklif qilish orqali chizdirish mumkin.

Badiiy asarga illyustratsiyalarni ishlashda yoki borliqni idrok etish mavzularida rasm chizishda, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga syujet tanlashda yordam berish mumkin. Masalan, 4-sinfda "Ur to'qmoq" ertagi asosida rasm ishlashda o'qituvchi uchib yurgan to'qmoqning turli ko'rinishlarini tasvirlashni taklif qilishi mumkin. Bunda ishlash texnikasini tanlashda ham yordam berish mumkin. Masalan, bo'yalgan qog'ozda rasmlarni ko'rsatishni taklif qilish mumkin. Qog'oz foni ko'k-kulrang, kulrang-yashil ranglari yorqin rangli qog'ozda tasvirni yaratishga yordam berilsa, ish sezilarli darajada osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatini yosh va psixologik xususiyatlari asosida rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarning yoshiga xos idrok etish, tasavvur qilish, kuzatish va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan tasviriy san'at darslari ularning badiiy qobiliyatlarini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda individual yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, mustaqil va ijodiy faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, tasviriy faoliyat orqali o'quvchilarda estetik did, rangni his etish, kompozitsion tafakkur, tasavvur kengligi hamda ijodiy yondashuv kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos metodik asosda tashkil etish, ularning intellektual, estetik va ma'naviy kamolotini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyorova O., Nurtaev O'. Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Nizomiy nom. TDPU. —T. : 2007. 54 b.
2. Qobilov Sh.R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (Pedagogik tasvirlar ishlash). —T.: Fan va texnologiya. 2014. -136 b.

3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.-250 b.
4. Hasanov R. Tabaqalishtirilgan ta'lim. Muammo va echim. // Ma'rifat gazetasi. 2003. 15 noyabr.-8-9 b.
5. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. 2009.204b.
6. Hasanov R. O'quvchilarnitasviriy san'atdan bilim va malakalarini o'zlashtirilishining nazorati. —T.: TDPU. 2008. -30 b.